

To'lov-kontrakt to'lash muddati uzaytirildi

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2018 yil 5 oktyabrdagi 11-sonli bayoni bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018/2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida bakalavriat va magistraturada tahsil olayotgan ikkinchi va undan yuqori kurs talabalari uchun to'lov-kontrakt miqdorining birinchi yarmini to'lash muddatini joriy yilning 15 noyabriga qadar uzaytirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi.

Shuningdek, mazkur bayon bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar, abituriyentlar va ularning ota-onalarining ko'p sonli murojaatlarini inobatga olib respublika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriati va magistraturasiga 2018/2019 o'quv yilida to'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun bazaviy kontrakt miqdorining birinchi yarmini to'lash muddati 2018 yilning 31 oktyabriga qadar (shu kuni ham) uzaytirildi.

Manba: edu.uz